

“O‘QUVCHI YOSHLAR BILAN HARBIY-VATANPARVARLIK MAVZUSIDA NAZARIY KONFERENSIYALAR TAYYORLASH VA O‘TKAZISH USLUBIYOTI”

FarDU Harbiy ta’lim fakulteti talabasi
Alinazaroiv Nodirxon Nosirxonzoda

Anatasiya : Nazariy konferensiya bu - jamoa bo‘lib, shu tartibda kitoblar mazmunini tahlil qilish, kitobxonlar o‘rtasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi muammolari bo‘yicha bir yoki necha asoslar yuzasidan fikr almashish, munozara yuritishdir.

Bunday ish olib borishning asosiy xususiyati shundan iboratki, bunda asosiy o‘rin kitobxonlarga, ularning fikrlariga tegishlidir. Kitobxonlar konferensiysi yoshlarni tarbiyalashda yaqindan ko‘mak beradi, diqqat bilan mutolaa qilishga, o‘qib chiqilgan narsalarni chuqur tahlil qilishga o‘rgatadi, uni anglashga yordam beradi, ularni Vatanimizga sadoqat ruhida tarbiyalaydi, yoshlarni har xil muammolar harbiy fikr almashishga intilishlariga javob beradi.

Kalit so‘z: Nazariy konferensiya, konferensiya rejasi, kitobxonlar muhokamasi, konferensiya tashviqoti, mustaqil fikr, konferensiyaning mafkuraviy-tarbiyaviy ahamiyati, muhokama mavzusi, taqriz va fikrlar, ma’naviy boylik, kitoblar tashviqoti.

Nazariy konferensiyaning asosiy sharti -samimiyl fikr almashish, o‘quvchilarni o‘qib chiqilgan kitoblar, ularda ko‘tarilgan muammolar haqidagi shaxsiy fikr mulohazalaridir. Harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi nazariy konferensiya-o‘quvchi yoshlarni vatan himoyasiga tayyorgarlik ruhida tarbiyalashning ta’sirchan vositasi hisoblanadi.

Ularni tortuvchi kuchi samimiyl vaziyatda o‘tishi, yoshlar qalbiga chuqur ta’sir etishidir.

Bundan tashqari, nazariy konferensiyalar shunday uyushtirilishi mumkinki, bunda o‘smlar va qizlar chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligi fani bo‘yicha o‘z bilimlarini namoyon qilish imkoniyatlariga ega bo‘lishi mumkin.

Nazariy konferensiyanı tayyorlash va o‘tkazish uchun bir qancha kishilar kuchini safarbar qilishga to‘g‘ri keladi. Har bir nazariy konferensiya o‘zini dasturiga ega bo‘lishi kerak. Nazariy konferensiya tayyorgarlik, maktab harbiy ta’lim rahbari tomonidan tashkiliy kengash va kutubxona vakillari bilan birgalikda olib boriladi. Konferensiya rejasi maktab direktori tomonidan tasdiqlanadi.

Konferensiyanı tashkillashda iloji boricha o‘quvchilarni o‘zlarini jalb qilish juda muhimdir. Har bir o‘quvchiga alohida vazifa topshirish kerak.

Agar vazifa murakkabroq bo‘lsa (masalan; adabiyotlarni yig‘ish) u holda vazifani o‘quvchilar guruhiiga topshirish ma’quldir. Nazariy konferensiyanı tayyorlash uslubini asosiy prinsipi bunday tadbirlarni o‘qituvchi rahbarligi ostida o‘quvchilarning

o‘zlari tayyorlashi kerak. Demak, o‘quvchilarni muvofiq ravishda uyushtirish, ularni ijodiy kuchlarini kerakli yo‘nalishga yurgizish kerak. Xuddi mana shu yerda o‘quvchilarga jamoat tashkilotlari va kutubxona vakillarini yordami kerak bo‘ladi. Nazariy konferensiyaga urush va mehnat veteranlari, harbiy qism vakillarini va shu məktəbni tamomlagan harbiy xizmatchi yoki armiya xizmatini o‘tagan yoshlarni taklif qilish maqsadga muvofiqdir.

Har bir konferensiyaga mazmunli jarangli nom tanlash kerak, unda konferensiyani mavzusi va yo‘nalishi o‘z aksini topgan bo‘lishi kerak.

Masalan: “Otamdan qolgan dalalar” kitobi bo‘yicha o‘tkaziladigan konferensiyaga “An‘analar davom etmoqda”, yoki “Ilhaq” filmi bo‘yicha “Ona vatan-muqaddasdir” degan nomlarni berish mumkin.

Konferensiya o‘tkazilayotgan vaqtida uning qatnashchilarini faollashtirish kech bo‘ladi, shuning uchun bu ish rahbar tomonidan oldinroq boshqa tadbirlar yordamida amalga oshirilishi kerak. Har bir konferensiya bu ishlarni yakuniy hisobotini chiqarish uchun o‘tkazilishi lozim.

Unihiq vazifasi yoshlarda estetik nozik didni, axloqiy ideal va qat’iy e’tiqodni tarbiyalashdir. Tajribali rahbarga munozara vaqtida o‘quvchilarni faolligini boshqarish, uni kerakli oqimga yo‘naltirish qoladi xolos.

Demak, konferensiya uchun mavzuni to‘g‘ri tanlash bu -muvaqqiyat garovidir. Lekin, qanday tanlash to‘g‘ri bo‘ladi? Bu yerda so‘z taniqli, mashhur yoki umuman noma‘lum bo‘lgan mualliflar haqida ketyaptimi?

Ba‘zi vaqtida shunday bo‘ladiki, asarning badiiy sifati yuksak bo‘imasligi, lekin unda muallif ko‘targan muammolar barchani hayajonlantirib larzaga solishi mumkin. Har qanday vaziyatda ham tashkilotchi konferensiyaning asosiy vazifasini belgilab olishi zarur, buning uchun kitobxonlarni ushbu muammolarga bo‘lgan qiziqish sabablarini tushunish kerak.

Badiiy asarni muhokama qilishni muvaffaqiyati asosi bo‘lib kitobni yoki mavzuni to‘g‘ri tanlanishidir. Unda ko‘tarilgan muammolar, o‘quvchi yoshlarni hayajonlantirishi juda ham zarurdir. Agar konferensiya xalqimizni buyuk ajodolari Sohibqiron Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Manguberdi va shunga o‘xshash ulug‘ siymolar hayotlariga bag‘ishlab o‘tkazilsa yanada o‘z samarasini berar edi.

Chunki, o‘quvchi yoshlarda Vatanimiz tarixiga, xalqim, yurtim deya yonib, kurashib o‘tgan buyuk ajodolamiz hayotlariga bo‘lgan qiziqish va uni o‘rganishga bo‘lgan intilish juda ham kattadir.

Muhokama uchun o‘tkir syujetli, jiddiy hayotiy muammolarni ko‘tarib chiqqan, yangi asarlarni olish kerak. Muhokama mavzusi yozuvchini butun ijodiy, hikoyalar to‘plami, alohida bir kitob yoki biror bir jurnaldagi maqola ham bo‘lishi mumkin. Muhokama qilinuvchi asarlar soni qancha oz bo‘lsa, shu maqsadga muvofiq bo‘ladi. Aks holda, konferensiya cho‘zilib ketishi, muhokama esa zerikarli o‘tishi mumkin. Mavzuni tanlashda rahbar faqat o‘zini fikrini o‘tkazishi mumkin emas. Shuni

nazarda tutish kerakki, faqat o'quvchilarni o'zlarini faol qatnashishlari konferensiyanı yaxshi tayyorlanishiga va muvaffaqiyatlı o'tishiga imkon yaratadi.

KONFERENSIYA REJASINI ISHLAB CHIQISH TARTIBI.

Konferensiyaning katta amaliy ahamiyati mavzuning dolzarbligi, uni puxtalik bilan tashkil etishni talab qiladi. Buning uchun rahbar konferensiya rejasini puxta o'ylab tuzishi, shuningdek, tashkiliy kengash a'zolari bilan birgalikda konferensiyanı tayyorlash rejasini tuzadi.

Tayyorgarlik rejasiga quydagilarni kiritish tavsiya etiladi:

- konferensiya mavzusiga taqdim etilgan kitoblar sonini ko'paytirish;
- bu kitoblarni muhokamagacha ko'proq o'quvchilar o'qib chiqishlari uchun ularni tashviqot qilish va tarqatish;
- kitobxonlarning bu kitoblar haqidagi fikr mulohazalarini yig'ish va fikrlar bitilgan maxsus varaqalarni chiqarish;
- konferensiyada so'zlashni xohlovchi kitobxonlarni aniqlash;
- so'zga chiquvchilar uchun konsultatsiyalar uyuştirish;
- konferensiyanı olib borish uchun rais saylash;
- bo'lajak konferensiya haqida axborotlar;
- konferensiya o'tkaziladigan binoni tayyorlash.

Konferensiya tayyorgarlik 2 oygacha davom etadi. Tayyorgarlikni bundan ham uzoq muddatga cho'zish tavsiya qilinmaydi, bu o'quvchilardagi dastlabki taassurotlarni esdan chiqarishga, nisbatan qiziqishning pastlashiga olib kelishi mumkin. Tayyorgarlik davomida rahbarga faollar bilan birgalikda katta hajmdagi jiddiy ishlarni bajarishga to'g'ri keladi. Tayyorgarlik reja asosida borishi va bunda biror bir narsa tushib qolmasligi uchun, rejaning har bir qismi uchun javobgar shaxs tayinlanib, uni bajarishni aniq muddatlari ko'rsatib o'tilgani maqsadga muvofiqdir.

Sinfning CHQBT bo'yicha kutubxonasini muhokamaga qo'yilgan asoslar bilan imkon boricha to'ldirish zarur. Buning uchun har xil manbalardan foydalaniladi:

- kitoblar buyurtma qilinadi;
- abonnement bo'yicha maqolalar buyurtma qilinadi;
- magazinlardan kitoblar sotib olinadi.

Navbatdagi vazifa muhokamaga qo'yilgan kitobning mazmunini keng o'quvchilar yoki kitobxonlarga yetkazish.

Bunda qancha ko'p o'quvchilar u bilan tanishib chiqsa, shuncha ko'p o'quvchi konferensiya qatnashishi mumkin. Kitoblarni tarqatish uchun rahbar qo'l ostida bo'lgan barcha ko'rgazmali, og'zaki va boshqa tashviqot shakllaridan foydalanishi kerak. Sinf xonasida muhokama mavzusi yoki asar muallifi haqida ko'rgazmalar tashkil qilinadi. Kitoblarni tashviqot qilish konferensiya tashviqoti bilan birgalikda olib boriladi. O'qituvchi o'quvchilarga bo'lajak tadbirlar haqida yozma yoki og'zaki e'lonlar orqali yetkazadi. U o'quvchilar bilan harbiy vatanparvarlik mavzusidagi kitoblar haqida suhbatlashib nazariy konferensiya qatnashishni xohlovchi o'quvchilarni aniqlaydi. Konferensiya o'z fikrini aytishni istagan bir necha o'quvchilarni oldinroq aniqlab olish, bu muhokamani ishonchli tarzda boshlash

uchun muhimdir, agar kerak bo'lsa, so'zga chiqmoqchi bo'lgan o'quvchilarga zarur yordamlar ko'rsatiladi.

Bu yordam nimalardan iborat bo'lishi kerak? Umuman, yordam berish zarurmi? Eng zararli yondoshish bu o'quvchilar ustidan haddan tashqari nazoratni kuchaytirib yuborish.

Lekin bu o'qituvchi so'zga chiqmoqchi bo'lgan o'quvchiga yordam bermasligi kerak, degan fikrni bildirmaydi.

Kitobxonlar orasida shunday o'quvchilar borki, ular ko'p kitoblarni yaxshi tahlil va o'zining mustaqil fikr-mulohazalarni erkin bayon qila oladi. Rahbar bunday o'quvchilar guruhi bilan ishlaganda, kitobxonlarga asarni yaxshi tushunishlariga yordam beruvchi tanqidiy adabiyotlarni to'plash bilan chegaralanishi mumkin. Matabda o'qib chiqqan kitoblarni chuqur tahlil qila olmaydigan va o'z fikrini erkin so'zlay olmaydigan o'quvchilar bo'lishi mumkin. Lekin ularda o'zlarini kitobxon do'stlari davrasida o'z fikrlarini aytish ehtiyoji paydo bo'lgan bo'lishi mumkin. Xuddi mana shu yerda, ularga o'qituvchining yordami juda zarur bo'ladi. Lekin o'qituvchi suhbatda o'quvchiga o'z fikrini shakkantirishga, ma'lum bir xulosalar chiqarishga yordam berib, kitobxon fikrini o'z shaxsiy fikrlariga almashtirmasligi kerak, u faqat o'quvchini fikrlash, idrok qilish qobiliyatini yanada faollashtirishga imkon yaratishi lozim.

Konferensiyada so'zga chiqmoqchi bo'lgan kitobxonga yordam berish usullari turli-tumandir. Ko'p hollarda harbiy ta'lim o'qituvchisi adabiyot o'qituvchilari bilan birgalikda savollar majmuasini tuzadi.

Bu savollar harbiy kitobxonlarning fikr-muloxazalari eshitiladi. Savollar mazmuni muhokama qilinayotgan mavzu va kitoblarga bog'liq bo'ladi. Kitobxonlarga so'zga chiqishga tayyorlanishda kitoblar haqidagi taqrizlar, fikrlarni yig'ish yaxshi ko'mak beradi.

Harbiy ta'lim o'qituvchisi o'quvchilar bilan suhbatlashib, ularni kitoblar haqidagi fikrlarini eshitib, konferensiyada so'zga chiqmoqchi bo'lgan o'quvchilarni aniqlab oladi.

Ayniqsa, individual, shaxsiy suhbatlar juda ham foydalidir. Chunki, bu suhbat davomida kitobxonga konferensiyaning ahamiyati, yozma taqrizning qanday tuzilishi va o'z fikr-mulohazalarini so'zga chiqib, og'zaki bayon qilishga qanday tayyorlanishni tushuntirish mumkin. Bunday suhbatlarni samimiyl vaziyatda o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Ularni o'tkazish uchun maxsus tayyorlangan (tayinlangan) konsultant ajratilsa yana ham yaxshi bo'lar edi.

Konsultant bo'lib o'qituvchi, faol kitobxon yoki konferensiyanı olib borishga jalb etilgan o'quvchi faoliyat ko'rsatishi mumkin. Odatta muhokama savollari va kitobxonlarning fikr-mulohazalari konferensiya haqidagi e'lonlar bilan birga devoriy gazetalarga joylashtiriladi. Taqriz va fikrlar muhokamaga atab chiqarilgan albomlarga ham joylashtirilishi mumkin.

Nazariy konferensiyalardan kutilgan samara, harbiy ta’lim o‘qituvchisining ungacha kitoblarni targ‘ib qilishdagi tayyorgarlik ishlarning muvaffaqiyatiga bog‘liq bo‘ladi. Muhokama, amalga oshirilgan barcha ishlarning xotimasi, yakuniy qismi hisoblanadi.

Nazariy konferensiyani tashkil etishda, oldindan konferensiya o‘tkaziladigan bino haqida o‘ylash muhim ahamiyatga egadir. Bu maktabdagisi alohida sinf xonasi, majlislar zali yoki klub bo‘lishi mumkin. Agar konferensiya o‘quv yurtidan tashqarida o‘tkazilmoqchi bo‘lsa, u holda bu to‘g‘risida avvalroq kelishib olinishi kerak. Agar maktabning o‘zida bo‘lsa, uni oldindan muhokama mavzusidagi plakatlar, suratlar va boshqa ko‘rgazmali vositalar bilan jihozlash lozim.

Konferensiya davomida texnik vositalar va video-audio materiallaridan albatta foydalanishi zarur. Konferensiyaga har doim ham kitob muallifini yoki asar qahramoni prototipini taklif qilishga imkon bo‘lmaydi. Xuddi mana shunday vaziyatlarda texnik vositalar bizga yaqindan ko‘mak beradi.

Biz kitob muallifini yoki asar qahramonlarining fikr-mulohazalarini va o‘zlarini yozib olib, uni muhokama qatnashchilariga taqdim qilishimiz mumkin. Bunday usulni qo‘llash muhokama qatnashchilarida katta taassurot qoldirishi mumkin.

Konferensiya o‘tkaziladigan zalni badiiy jihatdan jihozlash katta ahamiyat kasb etadi. Badiiy jihozlash zalni bezabgina qolmay, nazariy konferensiyaning mafkuraviy tarbiyaviy ahamiyatini ham to‘la ochib berishga imkon yaratishi, kitobxonlar idrokini har xil vosita va badiiy so‘zlash usullari bilan faollashtirib, undagi asosiy mazmunni aniqlash kerak.

FOYDASLANILGA ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa Doktrinasi, T, 2018 y.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonuni, T, 2017 y
3. O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida” gi Qonuni, T, 2017 y.
4. O‘zbekiston Respublikasining Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiysi, T, 2018 y.
5. O‘zbekiston Respublikasining Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik bo‘yicha Nizomi, T, 2018 y.